

Temuriylar tarixiga nazar

“Ekologiya va suv resurslarini boshqarish” kafedrasida stajer-o‘qituvchisi Z.Sh.Sharipjonova «Gidromelioratsiya» fakultetining “Suv ta’minoti muhandislik tizimlari” ta’lim yo‘nalishi 1 kurs 106-guruh talabalari bilan 2019 yil 7 sentyabr kuni “Temuriylar tarixi” davlat muzeyiga tashrif buyurdilar.

Talabalar bobokalonimiz, buyuk sarkarda Amir Temurning butun umri davomida qilgan ulkan ishlari, jumladan, ilm-fan, madaniyat va harbiy sohalardagi sa’y harakatlari haqida ma’lumot olishdi. Muzeyga tashrif mobaynida talabalar Temuriylar shajarasi, davrning turli xil tangalari, sopol buyumlar, harbiy sohada ishlatilgan buyumlar hamda Temuriylar davrida barpo etilgan saroylar to‘g‘risida ma’lumotlar olishdi. Shu bilan bir qatorda muzeydagi eksponatlar oldida esdalik uchun suratga tushishdi.



Institut Matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov